

**PRAGMATIC EQUIVALENCE OF THE LINGUOCULTURAL UNITS IN THE ENGLISH TRANSLATION OF “SHUM BOLA” BY GAFUR GULAM****Mushtariy Kurbonova***Teacher, Faculty of Foreign Philology**National University of Uzbekistan**Email: mushtariy.qurbonova@mail.ru**Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: linguocultural units, pragmatic adequacy, translation studies, literary translation, cultural context, cultural connotation.

Received: 11.06.26**Accepted:** 12.06.26**Published:** 13.06.26

Abstract: This article examines the challenges of translating the linguocultural units in Gafur Gulom's work “Shum Bola” into English. The focus is on pragmatic adequacy, ensuring that the translation preserves not only the meaning but also the cultural and communicative context of the original. Examples are provided to illustrate translation difficulties, along with suggested strategies to overcome them, facilitating a more accurate and natural conveyance of the author's ideas to an international audience.

G‘AFUR G‘ULOMNING “SHUM BOLA” ASARIDAGI LINGVOMADANIY BIRLIKLARNING INGLIZCHA TARJIMASIDA PRAGMATIK MOSLIK**Mushtariy Qurbonova***O‘zbekiston Milliy Universiteti**Xorijiy filologiya fakulteti, o‘qituvchi**mushtariy.qurbonova@mail.ru**Toshkent, O‘zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so‘zlar: lingvomadaniy birliklar, pragmatik moslik, tarjimashunoslik, badiiy tarjima, madaniy kontekst, tarjima strategiyalari, madaniy konnotatsiya.

Annotatsiya: Ushbu maqolada G‘afur G‘ulomning “Shum Bola” asaridagi lingvomadaniy birliklarni ingliz tiliga tarjima qilishdagi muammolar tahlil qilinadi. Asosiy e‘tibor pragmatik moslikka qaratilgan, ya‘ni tarjimada nafaqat ma‘noni, balki madaniy va kommunikativ kontekstni saqlash masalasi o‘rganiladi. Misollar yordamida tarjimadagi qiyinchiliklar ko‘rsatilib, ularni bartaraf etish usullari taklif etiladi.

**ПРАГМАТИЧЕСКАЯ ЭКВИВАЛЕНТНОСТЬ ПРИ ПЕРЕВОДЕ
ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫХ ЕДИНИЦ НА АНГЛИЙСКИЙ ЯЗЫК В ПРОИЗВЕДЕНИИ
ГАФУРА ГУЛОМА “ШУМ БОЛА”**

Муштариё Курбанова

Преподаватель факультета зарубежной филологии

Национальный университет Узбекистана

Электронная почта: mushtariy.qurbonova@mail.ru

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: лингвокультурные единицы, прагматическая адекватность, переводоведение, художественный перевод, культурный контекст.

Аннотация: В статье рассматривается проблема передачи лингвокультурных единиц произведения Гафура Гулома «Шум Бола» при переводе на английский язык. Основное внимание уделяется прагматической адекватности перевода, то есть сохранению не только смыслового, но и культурного и коммуникативного контекста оригинала. Приводятся примеры трудностей перевода и предлагаются подходы к их преодолению, что способствует более точной и естественной передаче авторской идеи зарубежной аудитории.

Kirish. “Shum bola” asari XX asr boshidagi Turkiston hayotini aks ettirgan, unda rus mustamlakachiligi davri, mahalla hayoti, diniy institutlar, xalqona ijtimoiy munosabatlar badiiy shaklda ifodalangan. Shu bois, asarda uchraydigan har bir soʻz oʻz zamonining maʼnaviy yukini oʻzida olib yuradi. Tarjima jarayonida madaniy realiyalar yaʼni bir xalqning urf-odatlarini, diniy eʼtiqodlari, maishiy anʼanalari, tarixiy yoki milliy predmetlari bilan bogʻliq soʻz va iboralar lingvomadaniy aniqlikni taʼminlovchi eng nozik qatlamlardan biridir.

Pragmatik moslikning buzilishiga olib keluvchi omillar koʻp. Ularni shartli ravishda tilga oid omillar, madaniy-psixologik omillar va tarjimonning idrokiga oid omillar deb uch toifaga ajratish mumkin. Tilga oid omillar, birinchi navbatda, ikki tilning strukturaviy va semantik tafovutlariga borib taqaladi. Oʻzbek tili agglutinatив tuzilishga ega boʻlgani uchun, unda soʻzlarning shakli, urgʻu va ohang orqali nozik maʼno farqlari ifodalanadi. Ingliz tili esa analitik til boʻlgani sababli, bu nozikliklarni sintaktik vositalar bilan ifoda etadi. Madaniy tafovutlar ham tarjima jarayoniga bevosita taʼsir koʻrsatadi. Oʻzbek jamiyatida soʻzlashuv madaniyati, murojaat shakllari, hurmat koʻrsatish anʼanalari juda chuqur ildiz otgan. Oʻzbek madaniyatida kinoya koʻpincha mehr, ijtimoiy yaqinlik belgisi sifatida ishlatiladi. Ingliz tilida esa kinoya baʼzan salbiy, tanqidiy maʼno kasb etadi. Pragmatik nomuvofiqlikning eng muhim sababi tarjimonning oʻz

madaniy va psixologik idroki. Pragmatik nomuvofiqlik natijasida asarning badiiy ta'siri zaiflashadi. "Shum bola" asari xalqona hazil, kinoya, ijtimoiy kuzatuv va samimiyat bilan yo'g'rilgan. Tarjimonning vazifasi matni "til" darajasida emas, "madaniyat" darajasida o'girishdir. [1] U so'z ortidagi madaniyatni, urf-odatni, xalq ruhiyatini, tarixni va ijtimoiy qadriyatni his qilishi zarur. Tarjimon har bir so'zning asosiy ma'nosidan tashqari, uning o'quvchida qanday hissiy-assotsiativ ta'sir uyg'otishini oldindan tahlil qilishi zarur. Bu jarayonda lingvistik bilim bilan bir qatorda madaniy sezgirlik ham muhim rol o'ynaydi.

"Shum bola"da bolalar nutqidagi quvonch, hazil, qiziqish, qo'rquv yoki beparvolik kabi hissiyotlar o'zbek tili ifoda imkoniyatlari orqali tabiiy chiqadi. Ingliz tilida bu holatlarni ifodalash uchun ko'pincha neytral yoki umumiy so'zlar ishlatiladi, natijada emotsional zarralar yo'qoladi. O'zbek tilida birgina "voy" undovi bir necha xil hissiy holatni ifodalay oladi, ingliz tilida esa "oh" yoki "ah" bunday keng ma'noni bera olmaydi. Madaniy-referensial nomuvofiqlik o'quvchi uchun noma'lum yoki tushunarsiz bo'lib qolgan madaniy ishoralarning noto'g'ri talqini natijasida yuzaga keladi. [2] "Shum bola"da diniy marosimlar, xalq odatlari, tarixiy shaxslar va urf-odatlarga oid ko'plab ishoralar mavjud. Ingliz o'quvchisi uchun bu realiyalar begona, shuning uchun ularning mazmuni kontekstdan tushunilmay qoladi. Bu turdagi nomuvofiqlikni kamaytirish uchun tarjimonlarda madaniyatlararo vositachilik ko'nikmasi bo'lishi zarur. U asarda uchraydigan har bir madaniy ishorani ingliz o'quvchisining madaniy tajribasiga yaqinlashtirgan holda ifodalashi kerak.

Metodologiya. Tadqiqot manba va tarjima matnlarini qiyosiy tahlil qilish hamda ularning pragmatik xususiyatlarini baholashga asoslangan kualitativ-tavsifiy yondashuv asosida olib boriladi. Mazkur metodologiya G'afur G'ulomning "Shum bola" asarining inglizcha tarjimasida yuzaga keladigan pragmatik nomuvofiqliklarni batafsil tahlil qilish imkonini beradi hamda tarjima aniqligi va adekvatligiga ta'sir etuvchi madaniy, lingvistik va kontekstual omillarni yoritishga xizmat qiladi. Tadqiqot pragmatik ekvivalentlikning ko'p qatlamli tabiatini ochib berish maqsadida lingvistik, madaniy va diskurs tahlil yondashuvlarini o'zida uyg'unlashtiradi.

Tadqiqot materiali sifatida quyidagilar tanlandi: G'afur G'ulomning "Shum bola" asarining asl o'zbekcha matni bo'lib, unda XX asr boshlaridagi Turkistonning madaniy, ijtimoiy va diniy muhiti, xalqona til, iboralar hamda realiyalar keng aks etgan; "Shum bola" asarining nashr etilgan inglizcha tarjimasini ("A Naughty Boy" nomi bilan) bo'lib, u tahlil uchun manba matn sifatida foydalanildi; qo'shimcha manbalar sifatida o'zbek madaniyati va tarixiga oid lug'atlar, etnografik manbalar hamda o'zbek pragmatikasi va nutq madaniyatiga doir zamonaviy lingvistik adabiyotlar qamrab olindi.

Namunalar asl o‘zbek matni va uning inglizcha tarjimasidan tizimli ravishda tanlab olindi. Bunda madaniy yoki pragmatik yuklamaga ega bo‘lgan quyidagi lingvistik birliklarga alohida e‘tibor qaratildi:

- xalqona iboralar, idiomalar, maqollar va slang birliklari;
- diniy va tarixiy ishoralar (allusions);
- emotsional va baholovchi undovlar hamda nutq aktlari;
- til tarkibida ifodalangan ijtimoiy rol va maqom ko‘rsatkichlari (masalan, “domla”, “eshon”).

Natijalar va muhokama. G‘afur G‘ulomning “Shum bola” asarida madaniy turdagi birliklar juda ko‘p bo‘lib, ular asarning milliy ruhini, xalqona rangini va ijtimoiy muhitini ifodalaydi. Ammo asarning ingliz tiliga tarjimasida ayrim madaniy birliklar bevosita tushirib qoldirilgan yoki izohsiz qoldirilgan hollarda pragmatik nomuvofiqlik, ya‘ni o‘quvchining noto‘g‘ri yoki cheklangan talqini vujudga kelgan:

1. Madaniy fonning soddalashuvi: “takya”, “sarmo”, “chopon”, “domla”, “eshon” tushunchalari yo‘qolgan.
2. Ijtimoiy statusning buzilishi: “domla” va “eshon” obrazlari “teacher” va “man” darajasigacha qisqargan.
3. Ramziy ma‘nolarning yo‘qolishi: “samovar”ning “teapot”ga aylanishi natijasida milliy ramz yo‘qolgan.
4. O‘quvchi idrokining noto‘g‘ri yo‘nalishi: o‘quvchi asarni diniy-axloqiy emas, oddiy maishiy hikoya sifatida qabul qiladi.

G‘afur G‘ulomning “Shum bola” asari singari xalqona leksika, tarixiy realiyalar va arxaik so‘zlar bilan to‘yingan matnda pragmatik aniqlik muhim ahamiyat kasb etadi. [3] Tarjima o‘zbek madaniyatining tashqi belgilarini to‘g‘ri aks ettirgan bo‘lsa-da, milliy tafakkurdagi nozik ruhiy ohang – hurmat, nasihat, kinoya, diniy odob kabi jihatlar qisman yo‘qolgan. Tarjimada lingvomadaniy elementlarni transliteratsiya + izoh shaklida berish madaniy moslikni ta‘minlaydi. Shahar madaniyati va xalqona nutqdagi hazil, kinoya, bevosita murojaat elementlari ingliz tilida kommunikativ pragmatika bilan qayta tiklanishi lozim. G‘afur G‘ulom asarida ishlatilgan lingvomadaniy birliklar (duo-qarg‘ishlar, diniy atamalar, xalq maqollari, nasihat shakllari, kinoyalar) ingliz tiliga ko‘pincha so‘zma-so‘z o‘g‘irilgan. Asarda milliy ruhni ifodalovchi bir qator so‘zlar, iboralar, maqollar, diniy formulalar, xalqona nutq birliklari tarjimada o‘zining ma‘nodosh, ammo pragmatik jihatdan noteng variantlari orqali ifodalangan. Natijada ayrim holatlarda madaniy konnotatsiya yo‘qolgan, ba‘zilarida esa hissiy kuch susaygan.

Tahlil natijasida aniqlanishicha, diniy-axloqiy mazmunli iboralar ingliz tiliga ko‘pincha literal, ya‘ni so‘zma-so‘z tarjima qilingan. Masalan, “Men seni Xudoga topshirdim” iborasi ingliz

tilida “I put you to God” tarzida berilgan. Inglizcha “put” fe’li bu falsafiy yo‘nalishni ifoda eta olmaydi Bunday holatlarda denotativ sadoqat yetarli emas, ilohiy kuchni ham inobatga olish zarur. Mazkur misol o‘zbek madaniyatidagi “taqdirga bo‘ysunish” qadriyatining tarjimada yo‘qolishini ko‘rsatadi. Aslida, o‘zbek xalq tafakkurida “Xudoga topshirdim” iborasi qahr, ranjish, nadomat, sabr kabi bir necha hissiy holatlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Ingliz tilidagi so‘zma-so‘z tarjimada esa bu ko‘p qatlamlilik yo‘qolgan.

“Bu to‘ti... endigina tilga kirayotgan uch yasharlik qizlarning ovozigina o‘xshatib: ‘Asra, Asra! Mehmonga qara, bir choy, bir chilim...’ degani hali ham qulog‘imdan ketmaydi.” Inglizcha tarjima: “This parrot was very piper; it talked in a tone of a three-year-old girl: ‘Asra, Asra, look at the guests, one tea and one hookah. Come brothers, come rich men.’” (A Naughty Boy, p.6)

“Piper” so‘zi semantik jihatdan “chaqqon” yoki “gapiruvchan” ma‘nosini bermaydi, shuning uchun u bu kontekstdagi pragmatik kuchni pasaytiradi. Shuningdek, “come rich men” iborasi asl matndagi xalqona kinoya (boyvachchalar) ohangini soddalashtirgan.

Taklif etiladigan inglizcha tarjima: “This parrot was very talkative; it mimicked a 3-year old girl’s voice saying: ‘Asra, Asra, a guest is waiting – one tea, one hookah! Come, dear rich gentlemen!’

“Eshon oyi” yoki “Karim jinni” kabi xalq og‘zaki madaniyatidan kelib chiqqan nomlar tarjimada oddiy ism sifatida berilgan hollarda, asardagi madaniy ironiyani pasaytirgan. Ularni “Eshon Mother” yoki “Crazy Karim” shaklida emas, balki “Eshon Oyi – the madwoman of the sacred family” tarzida funksional-ekvivalent yondashuv bilan berish, asarning ruhini yanada chuqur ifodalaydi. “Eshon oyi” so‘zi tarjimada “Eshon Mother” deb transliteratsiya qilingan, ammo uning madaniy-pragmatik funksiyasi diniy maqomga ega ayol, jamiyatda muqaddas maqomda turgan shaxs – yo‘qolgan. Bundan tashqari, “love affairs” iborasi odob doirasidan tashqariga chiqib, asardagi xalqona, yumshoq, kinoyali ohangni buzgan. “Toshkentda shunaqa ham jinni ko‘p ediki...” Inglizcha tarjima: “There were a lot of stupid people in Tashkent...” (A Naughty Boy, p.7)

“Jinni” so‘zini “stupid people” deb tarjima qilish pragmatik xatolikdir, chunki “jinni” o‘zbek madaniyatida nafaqat aqli zaif, balki xalq og‘zaki madaniyatidagi mistik, hazilkash yoki ma‘naviy shaxs ma‘nosini beradi. “Stupid” esa bu semantik qatlamni butunlay yo‘qotgan. “Botman-botman” esa fonetik o‘yinli so‘z bo‘lib, ingliz o‘quvchisiga noma‘lum, lekin tarjimada hech qanday izohsiz qoldirilgan.

“Yo‘ldoshning otasi Buvaka bo‘lsa kon etik tikar edi, lekin yoshligida o‘lib ketib, Yo‘ldosh ota-onasiz shum yetim edi.” Inglizcha tarjima: “Yuldosh’s father Buvaka had passed away when he was a child and Yuldosh was an orphan.” (A Naughty Boy, p.9)

Bu tarjimada semantik ma'no to'g'ri, ammo emotiv-pragmatik kontekst yo'qolgan. Yetim konsepti tarixiy adabiyot, milliy ertaklar, og'zaki ijod, diniy risolalar va xalq psixologiyasida mustahkam joylashgan. Ingliz tilidagi "orphan" esa pragmatik neytralligi bilan ajralib turadi. Natijada manba tilidagi dramatik-semantik zichlik, ritmik-intonatsion fojaviylik, ijtimoiy-axloqiy ohang va kollektiv motivatsiyali achinishning diskursiv mexanizmlari tarjima tilida sustlashadi. Bu holat tarjima nazariyasida "pragmatik denaturalizatsiya" deb yuritiladi: voqea saqlanadi, ammo o'quvchi ongida ishga tushadigan madaniy-semiotik rezonans kuchsizlanadi.

"Onam oshxonada yertandirga o't qalab, qovoq somsa yopish taraddudida edi." Inglizcha tarjima: "My mother was cooking pumpkin pies in the kitchen." (A Naughty Boy, p.11)

"Qovoq somsa"ni "pumpkin pies" deb tarjima qilish pragmatik xato, chunki u milliy xomashyo va urf-odat farqini yo'qotadi. "Pumpkin pie" ingliz madaniyatidagi an'anaviy shirinlikni anglatadi, bu esa o'zbekcha "Qovoq somsa" bilan mos kelmaydi, ikki gastronomik semiosferaning bir-biriga mos kelmasligi semantik parallelning buzilishiga olib keladi. Ushbu birlik o'zbek oshxona realiyalarining semantik va gastrokulturologik o'ziga xosliklari bilan bog'liq. "Qovoq somsa" kabi birliklar o'zbek oilaviy makonining, ayollar mehnati estetikasining, tandir atrofidagi ritmik harakatlarning, uy-ichkarilik tushunchasining, ona mehrining kodli tasviridir.

"Oyim qo'lidagi xamir yoyib o'tirgan o'qlov bilan boshimga astagina urdi." Inglizcha tarjima: "My mother hit me slowly on my head with a stick." (A Naughty Boy, p.11)

"Stick" so'zi semantik jihatdan to'g'ri, ammo pragmatik jihatdan yumshoqlikni yo'qotgan, chunki asl matnda ona mehr bilan jazolaydi. Inglizcha versiyada bu harakat zo'ravonlik sifatida ko'rinadi. Inglizcha "hit me with a stick" bu ifodani keskinlashtiradi, ehtimoliy salbiy konnotatsiyalarni uyg'otadi va nutq vaziyatidagi illokutsion kuchni semantik jihatdan o'zgartiradi. Bu misolda o'zbek tarbiya madaniyatining konnotativ palitrasi bitta neytral leksik birlik orqali soddalashtirilgan "Sart" so'zini ingliz o'quvchiga izohsiz qoldirish pragmatik noaniqlik tug'diradi. Tarjimon pastda "Uzbek settled population" degan izoh qo'shgan, ammo bu siyosiy va etnografik noziklikni to'liq ifodalamaydi, ma'no maydonini toraytiradi, etnodiskursiv konnotatsiyalarni yo'qotadi va tarixiy-etnik strukturaning ko'p qatlamli semantik tarkibini buzadi.

"Shum bola" asarining ayrim sahifalarida tarjimon ko'pincha leksik aniqlikni saqlagan, biroq diniy, xalqona va kinoyaviy pragmatikani to'liq ifoda etishda ba'zan qiyinchiliklarga duch kelgan, tarjimon sahna harakati va voqea rivojini yaxshi aks ettirgan, lekin xalqona kinoya, diniy ifodalar, va hissiy registrlarda ayrim pragmatik buzilishlar mavjud. Ularni to'g'rilash orqali matnda G'afur G'ulomning satirik realizm va madaniy-hissiy tabiati to'liq tiklanadi. G'afur G'ulomning falsafiy-satirik ohangi asosan saqlangan, lekin ayrim joylarda Sufiy-axloqiy konnotatsiyalar ("nafs", "duo", "ziki", "sig'inish") ingliz tilida soddalashgan. Tarjima umumiy

ma'noda to'g'ri bo'lsa-da, diniy undovlar ("Bismillah", "Allohu akbar"), xalqona faryodlar ("voydod") va hazil elementlari ingliz tilida shakliy, lekin pragmatik bo'lmagan ekvivalentda berilgan. Bunday nomuvofiqliklar asosan ifoda ohangi, yumor, hissiylik yoki xalqona uslubni tajima qilishda paydo bo'ladi. "Shum bola" asarining badiiy kuchi uning xalqona tili, hazil-mutoyiba, kinoya va oddiy xalq nutqiga yaqinligi bilan bog'liq.[4] Ingliz tarjimasida ayrim joylarda bu o'zbekona ohang pasaygan.

Karvon qo'ng'irog'i, yulduzlar, sufiy ashulasi, Ukkosha maqbarasi kabi unsurlar milliy-islomiy ruh va xalqona tasavvufiy nutqni ko'rsatadi. Tarjimon bu holatlarni umumiy anglatgan bo'lsa-da, ba'zi joylarda ortiqcha dramatisatsiya yoki majozilikning yo'qotilishi kuzatiladi. Shu bilan birga, ayrim joylarda zamonaviy yoki g'arbona leksika (masalan, marihuana, bloody hell, buster) pragmatik uyg'unlikni buzgan. Asarning so'nggi bo'limida tarjima asosiy milliy leksikani (halva, nos, namoz, imam, sarrof, hoji) saqlagan, bu lingvomadaniy moslik tamoyilini amalda tasdiqlaydi. Shu bilan birga, ba'zi joylarda o'zbekcha so'zlardagi axloqiy noziklik, kinoya va ruhiy ta'sir yo'qotilgan. Masalan, "empty-headed", "hit that man", yoki "drug addicts" kabi so'zlar asardagi xalqona ruh va tasavvufiy ma'nolarni soddalashtirgan. Bu orqali G'afur G'ulom tasvirlagan jamiyatdagi ruhiy inqiroz va axloqiy ironiyaning lingvopragmatik ifodasi ingliz tilida nomuvofiq aks etadi. [5] To'g'ri variantlar orqali inglizcha matn ma'naviy-pragmatik uyg'unlikka yaqinlashadi. Natijada G'afur G'ulomning xalqona dunyoqarashi, diniy kinoyasi va ijtimoiy satirasi o'zbek tilidagidek tabiiy tarzda tiklanadi.

"Odam keksaga hazil qilmaydi, uyat bo'ladi" iborasi o'zbek tilida iymoniy va jamoaviy qadriyatni bildiradi. Chunki "shame" ingliz madaniyatida individual hissiyot bilan bog'liq, o'zbek madaniyatida esa "uyat" kollektiv nazorat, jamoaning qoralashi bilan bog'liq. Demak, bu yerda madaniy-pragmatik turtki yo'qolgan. Bunday holatlarni to'g'rilash uchun madaniy izohli ekvivalent zarur. Masalan, "It is a disgrace before people and God to mock an elder." degan variant o'zbek madaniyatidagi ikki bosqichli javobgarlik – ijtimoiy ("odamlar oldida") va diniy ("Xudo oldida") komponentni aks ettiradi. Bu orqali axloqiy-pragmatik kuch qayta tiklanadi. Tarjimada "uyat" singari milliy qadriyatlarni ifodalovchi so'zlar ekvivalent izohli struktura orqali berilishi lozim.

"Bu qush emaski uchib ketsin, bu qurbaqa emaski teshikka kirib ketsin" kabi jumlar o'zbek xalq nutqidagi kinoyaviy qarorni ifodalaydi. Ingliz tilidagi "It is not a bird to fly, not a frog to disappear" so'zma-so'z tarjima semantik ma'noni saqlasa-da, xalqona ohang, ritm va so'z o'yini yo'qoladi. Chunki o'zbekcha sintaksisda parallel qurilish (anafora va antiteza) orqali hissiy kuch beriladi. Shu sababli, "It's not a bird to fly away, nor a frog to hide" kabi variant ritmik-pragmatik muvozanatni tiklaydi. O'zbek tilidagi maqol va kinoyalar so'zlar soni, urg'u joyi, ohang balandligi

orqali kommunikativ maqsadni ifodalaydi. Tarjimada bu elementlar yetishmasa, o'quvchi kinoyaning maqsadini sezmaydi.

Xulosa. Tarjima jarayonidagi diskursiv-pragmatik tizimning qayta konfiguratsiyalanishi til va ong o'zaro munosabatiga asoslangan murakkab gnoseologik jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu ko'p qatlamli struktura boshqa til tizimiga o'tkazilganda, diskursning funksional mexanizmlari qayta quriladi, uning ichki izchilligi yangidan modellashtiriladi, tarjima tili auditoriyasining mental qabul mexanizmlariga moslashtiriladi, nutqiy makonning rekonstruktiv modulyatsiyasi sodir bo'ladi, bunda muallif pozitsiyasi, kommunikativ subyektlararo munosabat va nutqning ijtimoiy mezonlari yangidan shakllanadi. Har bir tilning o'ziga xos konseptual tasnifi mavjud bo'lgani uchun, manba matnning diskursiy tabiati qabul qiluvchi til strukturasi boshqa kognitiv modellar bilan kesishadi. Manba matndagi ijtimoiy-simvolik signallar qabul qiluvchi madaniyatda yangi interpretativ rezonans shaklida namoyon bo'ladi. Tarjimon mazkur mezonlarning har birini manba matnga bog'langan holda emas, balki qabul qiluvchi madaniyatning nutqiy kollektiv xotirasi asosida qayta tashkil etadi. Bu jarayonda lingvistika, semiotika, pragmatika, diskursshunoslik, sotsiokognitiv nazariya, mental modellashtirish jarayoni va kultural psixologiya omillari o'zaro tutashadi. Shu sababli, tarjimada diskursiy tizimni zakovat bilan qayta formatlash jarayoni til vositalarini mexanik almashtirish emas, balki diskursning ichki kuchlanishini, muloqot strukturasi va funksional orientatsiyasini qayta tiklash hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Plyth P. Translation affects literary and cultural systems: how to observe the features of translation? // *Applied Translation*. – 2020. – P. 29-37.
2. Alsaedi S. R. J. Cultural problems of equivalences in literary translation // *Journal of Xi'an University of Architecture & Technology*. – 2020. – Vol. XII, Issue II. – P. 2292-2312.
3. Utkerovna B. S. Shum bola asarining tarjimasida tarjimon mahorati // *Denmark: Theoretical and Practical Foundations of Scientific Progress in Modern Society*. – 2023. – Vol. 14, No. 1.
4. Soatov A. Education and upbringing in literature: the cognitive and linguacultural aspects in "The Prime of Miss Jean Brodie" and "Shum bola" // *American Journal of Philological Sciences*. – 2025. – Vol. 5. – P. 65-69.
5. Nabiyeva G. G'. G'ulomning "Shum bola" asari tarjimasidagi tafovutlar xususida // *UzMU xabarлари*. – 2024. – Vol. 1. – P. 334-336.
6. Gulom G. *Naughty Boy* / Transl. by Tukhtasinov I., Yuldashev U. – Tashkent: Yangi asr avlodi, 2017. – 128 p.
7. G'ulom G'. *Shum bola*. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – 192 b.